

Received: 1 September 2026 Accepted: 3 September 2026 Published: 5 September 2026

Vol. 4 • No. 9 • 2026

ISMOIL IBN KASIRNING “AL-BIDOYA VAN-NIHOYA” ASARIDA QORAXONIYLAR VA G‘AZNAVIYLAR DAVRI MA’LUMOTLARINING TAHLILI

Saidakbarov Xalilulloh Saidmuxtor o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi tayanch doktoranti
Tel: 97 756 56 30

Saidakbarov Khalilulloh Saidmuxtor o‘g‘li

PhD Researcher at the International
Islamic Academy of Uzbekistan
Tel.: +998 97 756 56 30
DOI: 10.5281/zenodo.22640592

ABSTRACT: Mazkur maqolada Damashqlik tarixchi Abul Fido Ismoil ibn Kasirning “Al-bidoya van-nihoya” asarida Qoraxoniylar va G‘aznaviylar tarixiga oid ma’lumotlar tahlil qilinadi. Asarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida kechgan siyosiy jarayonlar, Qoraxoniylar sulolasi vakillari, G‘aznaviylar hukmdorlari hamda ular o‘rtasidagi siyosiy-harbiy munosabatlar yoritilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Mahmud G‘aznaviy va Qoraxoniylar hukmdorlari o‘rtasidagi munosabatlar, hududiy kurashlar, harbiy to‘qnashuvlar va ittifoqchilik aloqalari Ibn Kasirning tarixiy bayonlari asosida ko‘rib chiqiladi. Maqolada “Al-bidoya van-nihoya”ning XI asr boshlaridagi Movarounnahr va Xuroson tarixini o‘rganishdagi ahamiyati hamda undagi ma’lumotlarning tarixiy qiymati tahlil etiladi.

Keywords: Ibn Kasir, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Mahmud G‘aznaviy, Movarounnahr, Xuroson, xoqon, Samarqand, harbiy yurish

Somoniylarga qarashli yerlarning Qoraxoniylar va G‘aznaviylar o‘rtasida bo‘lib olinishi Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniyatning yangi bosqichga ko‘tarilishiga turtki bo‘ldi. Xususan, buni quyidagilar bilan izohlash mumkin: birinchidan, Movarounnahr ilm-fan rivoji Xurosondan ayri holda mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tti; ikkinchidan, Qoraxoniylar davlati vujudga kelishi natijasida Movarounnahr hali islom chuqur kirib bormagan “Bilod ul-turk” (turk o‘lkalari) bilan birga bir davlat tarkibiga kirdi; uchinchidan, Qoraxoniylar somoniylarning markazlashgan boshqaruv tizimi o‘rniga mayda urug‘larga bo‘lib boshqarish tizimini joriy ettilar. Bu tizim mahalliy hokimlarga birmuncha mustaqillik berdi va buning natijasi o‘laroq, shaharlar hayoti jadallik bilan rivojlandi¹.

Asosiy qism

Ibn Kasir Al-bidoya van-nihoyada Qoraxoniylar davrini Somoniylar kabi keng yoritmagan, balki sulola nomini ham aytib o‘tmagan. Qoraxoniylar asarda “turk” degan umumiy nom bilan atalgan. Shunga

qaramay, qoraxoniylar xoqonlar, ularning sifatleri va bu davrdagi siyosiy voqealar haqida ma’lumotlar uchraydi. Avvalgi badda ta’kidlab o‘tilganidek Somoniylarning tugatilishiga asosiy sabab sifatida G‘aznaviylar ko‘rsatilgan. Shunga qaramay, Qoraxoniylar Movarounnahrni egallashi asarda tilga olinib o‘tilgan va qoraxoniylar hukmdorlari esa Movarounnahr hukmdori sifatiga keltirilgan. Yana shuni ta’kidlab o‘tish kerakki asarda Qoraxoniylarga nisbatan G‘aznaviylar oid ma’lumotlar kengroqdir.

Muhokama

Qoraxoniylar davlatining asoschisi sifatida Sotuq Bug‘roxon (Abdulkarim) ko‘riladi. Movarounnahrda Qoraxoniylarning ilk kirib kelishi ham aynan Bug‘roxon bilan bog‘liq. Uning to‘ssattan vafot etishi Qoraxoniylarning Movarounnahrda chiqib ketishiga sabab bo‘ldi. Lekin keyinroq uning vorisi etib tayinlangan Ahmad ibn I Arslonxon o‘z vassali Nasr ibn Ali boshchiligidagi qo‘shinni Movarounnahrda jo‘natti. Natijada 382/999-yilda Movarounnahr Qoraxoniylar tomonidan egallandi. Al-Bidoya asarida Qoraxoniylar

¹ Movarounnahrda islom madaniyati tarixi/ mualliflar jamoasi.. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. – B. 106.

hukmdorlari haqida ma'lumotlarda bir muncha chalkashliklar bor, sababi Ibn Kasir hukmdorlarning ismlarini emas, faqat unvonlarini, ba'zida esa laqablarini keltirib o'tgan. Asarda davlat asoschisi sifatida qaralgan Bug'roxon haqida ma'lumot uchramaydi. Qoraxoniylar haqida ilk ma'lumot hijriy 403-yildan boshlanadi. Ibn Kasir hijriy 403-yilda Qoraxoniylarda hukmron o'zgarganini yozadi: "Bu yili (hij. 403-yil) buyuk turk hukmdori Ilekxon vafot etdi. Uning o'rniga ukasi To'g'onxon o'tirdi². Tatqiqotlarda Nasr ibn Alining hijriy 403-yilda vafot etgani hamda "ilek xon" unvoniga ega ekani ta'kidlangani hisobga olinsa³, ibn Kasir "Ilekxon" deganda Nasr ibn Alini nazarda tutgan deyish mumkin. Uning o'rniga taxtga kelgan To'g'onxon esa akasi Ahmad ibn Alidir. Ibn Kasir Ilekxon Nasr o'rnida akasi To'g'onxon taxtga o'tirganini aytsada, boshqa manbalarda boshqa bir ukasi Arslonxon laqabini olgan Mansur ibn Ali Movarounnahr hukmdori bo'lgani qayd etiladi⁴. To'g'onxon Ahmad ibn Ali aslida Qashqarda hukmronlik qilgan. Tarixchi V.V. Barthold uning hokimiyati Movarounnahrni ichiga olganmi yo'qmi, buni aniqlash qiyin degan. Shunga qaramay boshqa tadqiqotlarda Nasr ibn Ali Movarounnahrni To'g'onxonning bir vassali sifatida boshqarganligi qayd etiladi. Qoraxoniylar mamlakatida, barcha ko'chmanchi imperiyalarda bo'lgani kabi, merosiy mulk tushunchasi shaxsiy huquq doirasidan davlat huquqi doirasiga ko'chirildi. Mamlakat xonning butun oilasining mulki hisoblanib, ko'plab qismlarga bo'lingan edi. Davlat boshlig'ining hokimiyatini kuchli vassallar zarurat tug'ilganda butunlay rad etishlari ham mumkin edi. Mamlakatni bo'lib boshqarish usuli, har doimgidek, shaxsiy adovatlarning kuchayishiga va hukmdorlarning doimiy almashib turishiga sabab bo'lardi. Shu sababli sulolaning alohida vakillari hukmronligining xronologiyasini aniq belgilash mumkin emas⁵. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Mansur ibn Ali Nasr ibn Alidan so'ng Movarounnahr hukmdori bo'lgan, To'g'onxon Ahmad ibn Ali esa Qashqarda hukmron bo'lib, Nasr ibn Ali davrida ham "buyuk xoqon" maqomida bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek asarda Qoraxoniylar bilan birga G'aznaviylar davlati haqida ham ma'lumotlar uchraydi, balki G'aznaviylar haqida kengroq ma'lumot berilgan deyish mumkin. G'aznaviy Mahmud Qoraxoniylar bilan Amudaryoni chegara qilib olish to'g'risida kelishuv erishgan edi. Ilekxon Nasr Mahmud G'aznaviy Hindistonga yurish qilgan paytda Somoniylarning barcha hududlarini, shuningdek, kelishuvga ko'ra G'aznaviylarga qoldirilgan Xurosonni ham egallash maqsadida ikki qo'shin yubordi. Biroq Hindistondan tezda qaytib kelgan Mahmud va uning

ukasi Nasr boshchiligidagi qo'shinlar har ikki qo'shinni ham mag'lubiyatga uchratdi. Ilekxon Nasr Mahmud tomonidan mag'lub etilgach, Xo'tan hukmdori Qodirxon Yusuf ibn Hasandan yordam so'radi. Shunga qaramay, u G'aznaviylar bilan bo'lgan Balx jangida ham mag'lubiyatga uchradi (398/1008). Al-Bidoya asarida ibn Kasir Mahmud G'aznaviyning Qoraxoniylar bilan jangini keltirgan: "Yana shu yili (hij. 397-yil) Yaminud-Davla Mahmud ibn Sabuktekin turk hukmdorini Xuroson diyoridan mag'lubiyatga uchratib quvib chiqardi va turklardan ko'p kishini o'ldirdi⁶".

Yuqorida ta'kidlanganidek Ilekxon Nasr vafotidan so'ng, o'rniga ukasi Mansur ibn Ali Movarounnahr hukmdori bo'ladi. Mansur ibn Ali akasi To'g'onxonga qarshi yurish qiladi. Kurashning aniq natijasi ma'lum bo'lmasa-da, To'g'onxon tarafida bo'lgan Ali Teginning Arslon Ilek Mansur tomonidan asir olinganiga qaraganda, Ahmadxonning muvaffaqiyat qozona olmagan anglashiladi. Ilekxon davridan boshlab Sulton Mahmud bilan ittifoqdosh bo'lgan va u bilan yaxshi munosabatlarni davom ettirgan Ahmadxon umrining so'nggi yillarida tarkibida, ehtimol, xitoyliklar ham bo'lgan 100 mingdan ortiq o'tovdan iborat g'ayrimusulmon ko'chmanchilarga qarshi kurashishga majbur bo'lgan. U Balasog'unga sakkiz kunlik masofagacha yaqinlashgan bu ko'chmanchilarga qarshi katta g'alabaga erishgach, ularni uch oy davomida ta'qib qilgan⁷. Ushbu yurishdan qaytganidan ko'p o'tmay esa 1017/18-yilda vafot etgan. Al-bidoya asarida To'g'onxonning vafoti, fazilati hamda yuqorida aytilgan ko'chmanchilarga qarshi yurishi aytiladi: "Bu yilda (hij. 408-yil) Abul Muzaffar ibn Arslon Xoqon akasi To'g'onxon vafot etganidan so'ng Movarounnahr va boshqa hududlarni egallab, hukmdor bo'ldi hamda o'ziga Sharaf ad-davla (Davlat sharafi) laqabini oldi. To'g'onxon ilmi, fazilatli, ilm va din ahlini yaxshi ko'radigan kishi edi. U bir marta turklarga qarshi yurish qilib, ulardan ikki yuz ming nafar jangchini o'ldirdi, yuz ming nafarini asir oldi. Oltin va kumush idishlar hamda chinni buyumlardan shu qadar ko'p o'lja qo'lga kiritdiki, bundan avval hech kimda bunday miqdor bo'lmagan edi. U vafot etgach, turk podshohlari sharqiy hududlarda yana ustunlikka ega bo'ldilar⁸".

Bu orada Mahmud G'aznaviy Xorazmni egalladi. Asarda Xorazmning egallanishi batafsil yoritilmagan. Xorazm hukmdori Abul Abbos Ma'mun ibn Ma'munning Mahmud G'aznaviy bilan hamkorligi va uning nomiga hutba o'qitishi natijasida amirlari tomonidan o'ldirildi. Mahmud G'aznaviy bu xabarni olgach Xorazmga yurish qiladi va hijriy 407-yilda shaharni egalaydi⁹. Ibn Kasir faqatgina shaharni egallanishi aytib o'tgan: Bu yili (hij. 407-yil) Xorazmshoh Ma'mun ibn

² Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 53-55.

³ V.V.Barthold. Mo'gul istilasina kadam Turkistan. Tarj: Hakki Dursun Yildiz. – Istanbul: Kronik Kitap, 2021. – B. 286.

⁴ Movarounnahrda islom madaniyati tarixi/ mualliflar jamoasi. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023. – B. 149.

⁵ V.V.Barthold. Mo'gul istilasina kadam Turkistan. Tarj: Hakki Dursun Yildiz. – Istanbul: Kronik Kitap, 2021. – B. 286.

⁶ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 36-37.

⁷ Ibn Asir. Al-komil fit-tarix. – Istanbul: : Bahar yayinlari. J. IX. – B. 232.

⁸ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 71-72.

⁹ Ibn Asir. Al-komil fit-tarix. – Istanbul: : Bahar yayinlari. J. IX. – B. 232.

Ma'mundan so'ng Xorazm diyorining hukmdorligi Mahmud ibn Sabuktekin qo'liga o'tdi¹⁰.

Al-bidoya asarida To'g'onxonning vafotidan keyin (hij. 408-yil) 423-hijriy yilga qadar boshqa ma'lumot uchramaydi. Ahmad ibn Ali To'g'onxonning vafotidan so'ng sulola ichidagi eng kuchli hukmdor uning ukasi Mansur (Abu al-Muzaffar Mansur ibn Ali) edi. Biroq Yusuf Qodirxon uning hokimiyatini tan olmay, taxtga da'vogarlik qila boshladi. Bundan bir qancha vaqt o'tgach Mansur ibn Ali hukmdorlikdan voz kechadi va o'rniga Yusuf Qodirxon keladi. 1032-yil oxirida vafot etgan Yusuf Qodirxon tasarrufidagi hududlar uning o'g'illari Sulaymon Arslon va Muhammad Bug'roxon qo'liga o'tdi. Biroq oradan o'n yil o'tgach, Qoraxoniylar davlati Sharqiy va G'arbiy Qoraxoniylar nomi bilan ikki alohida davlatga ajraldi. Asarda faqatgina Yusuf Qodirxonning vafot etgani aytilgan: "Bu yili (hijr. 423-yil) buyuk turk hukmdori va Movarounnahr mintaqasining hukmdori Qodirxon vafot etdi"¹¹.

X asr oxirlarida yana bir musulmon-turkiy davlati vujudga keldi. 961-yilda Somoniylarning qudratli turk g'ulom lashkarboshisi Alptegin Somoniylar nomidan boshqargan Janubiy Afg'onistondagi G'azna shahrida o'z nomi bilan davlat barpo etdi. Uning vorislaridan Sabuktegin davlatni mustaqil holga keltirdi va G'aznaviylar sulolasiga (977–1186) asos soldi. U va uning o'g'li Mahmud Amudaryoni Qoraxoniylar bilan bahshi chegara sifatida belgilashgan bo'lsalar-da, Sharqiy Eron, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonning katta qismini o'z hukmronliklari ostiga oldilar. G'aznaviylar ulkan boylik va jangovar fillar bilan qaytgan Hindistonga ko'plab harbiy yurishlar uyushtirib, hindularning hududlariga bosqinlar qildilar¹². Avval ham ta'kidlab o'tilganidek Al-bidoya asarida G'aznaviylar haqida keng ma'lumotlar berilgan. Ibn Kasir garchi siyosiy voqealarga Tabariy yoki Ibn Asir kabi keng o'rin bermagan bo'lsa-da, ba'zi shaxslarning biografiyasiga alohida urg'u bergan. Shulardan biri Mahmud G'aznaviydir. Al-Komil fit-tarix asarida qarasak Mahmud G'aznaviy solih, dindor sifatlar bilan qisqaroq tanitilgan bo'lsa, Al-bidoya asarida esa uning hayotidan lavhalar va ba'zi olimlar bilan munosabatlari keng yoritilgan. Mahmud G'aznaviy asarda ulamolarga e'tiborli va ularni hurmat qiluvchi sifatida yoritilgan: "U ulamolar va hadis olimlarini yaxshi ko'rar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ular bilan birga o'tirib-suhbatlashardi. Yaxshilik qiluvchi, dindor va solih kishilarni ham yaxshi ko'rar va ularga ehson qilardi"¹³. Ibn Kasir hijriy 416-yilda vafot etgan Usmon an-Naysaburiy ismli olim haqida aytar ekan, "Mahmud ibn Sabuktekin uni ko'rganida, hurmat yuzasidan

o'rnidan turardi. U yashagan mahalla zolimlardan himoya qilingan edi.¹⁴" deb qo'shimcha qiladi. Uning huzurida olimlar bilan ilmiy bahslar bo'lganini asarda ko'rish mumkin: "Uning majlislarida qatnashgan kishilar orasida Muhammad ibn Haytham ham bor edi. Muhammad ibn Haytham bilan Abu Bakr ibn Furak o'rtasida "Arsh" masalasi yuzasidan Sulton Mahmud huzurida munozaralar bo'lib o'tgan. Ibn Haytham bu munozaralarni o'z asarida bayon qilgan"¹⁵.

Mahmud G'aznaviyning abbosiy xalifalari bilan munosabati yaxshi bo'lgan. Asarda xalifa bilan maktub almashishlar haqida bir necha o'rinlarda ma'lumot beriladi. Bu maktublar hijriy 403¹⁶, 404¹⁷, 410, 414¹⁸, 418¹⁹, 420²⁰ yillarda yuborilgan. Asarda Mahmudning ba'zi bunyodkorlik ishlari ham aytiladi: "Mahmud Jayhun daryosi ustiga boshqa hukmdorlar va hatto xalifalar ham bunyod etishga qodir bo'lmagan bir ko'priq qurdirdi. U ushbu ko'priq qurilishiga 2 000 000 dinor sarfladi. Bunday inshootni undan boshqalar qura olmagan edi.²¹". Mahmud o'z davrida badaviylar tomonidan haj yo'lida qilinayotgan qaroqchilik sababli musulmonlarning hajga bora olmayotganlari borasida yordam bergani ham asarda aytib o'tiladi: Bu yili (hij. 412-yil) ulamolar va musulmonlardan bir jamoat buyuk hukmdor Yaminud-Davla Mahmud ibn Sabuktekinga shunday dedilar: «Sen yer yuzidagi hukmdorlarning eng buyugisan. Har yili kufr diyoridan bir qancha shaharlarni fath etyapsan. Mana, haj yo'li esa bir necha yillardan beri yopiq holda turibdi. Uni ochishing boshqa yurtlarni fath etishingga nisbatan ustuvorroq vazifadir». Yaminud-Davla Mahmud shu yili qozilarning qozisi Abu Muhammad an-Nosihini haj amiri etib tayinladi va badaviylarga tarqatish uchun 30 000 dinor pul berdi. Maqsad badaviylar hojilarga tegmasliklari edi. Shuningdek, u juda ko'p sadaqalarni ham yuborgan edi. Hajga otlanganlar qozi Abu Ja'far hamrohligida yo'lga chiqdilar. Cho'lga yetib kelganlarida badaviylar ularning yo'lini to'sib oldilar. Qozi Abu Ja'far Ahmad ibn Muhammad 5000 dinor berib, badaviylar bilan kelishuvga erishdi. Ular ham hojilarga tegmaslikka rozi bo'ldilar. Biroq ularning kattasi Jammaz b. Ubay hojilarni qo'lga olishga urinib, otiga mindi va bir davra aylandi. U arablarning «shay-tonlari»ni qo'zg'atib, ularni harakatga keltirdi. Samarqandlik Ibn Affon nomli bir qul unga nayza otdi. Nayza uning yuragiga tegib, Jammaz jonsiz holda yerga yiqildi. Shundan so'ng badaviylar tarqalib ketdilar. Odamlar esa xotirjamlik bilan haj yo'lida davom etdilar. Borib, haj ibodatlarini ado etdilar va salomat holda o'z yurtlariga qaytdilar. Hamd va shukr Allohga dir²²".

Mahmud G'aznaviyning eng muhim muvofaqiyati Hindiston safarlari edi²³. Mahmud ushbu

¹⁰ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 70.

¹¹ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 114.

¹² Peter B.Golden. Dunyo tarixinde Orta Asya. Tarj: Yahya Kemal Taştan. – Istanbul: O'tuken Nesriyat, 2015. – B. 117.

¹³ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 109

¹⁴ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 92-93.

¹⁵ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 109-110.

¹⁶ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 53-55.

¹⁷ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 60-61.

¹⁸ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 90.

¹⁹ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 97-98.

²⁰ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 104-105.

²¹ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 109.

²² Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 80.

²³ Jean-Paul Roux. Orta Asya. Tarih ve Uygarlık. Tarj: Lale Arslan. – Istanbul: Say yayinlari, 2023. – B. 293.

yurishlardan katta g'animatlat olgan, olgan g'animatlari orasida jangovor fillar ham bor di. G'aznaviylar fillardan jangovar harakatlarning asosiy vositalaridan biri sifatida foydalangan ilk musulmon kuchlardan biri edi²⁴. Ibn Kasir aytadi: "Mahmud ibn Sabuktekinning qo'shinida 400 ta jangovar fil bor edi. Bu, haqiqatan ham nihoyatda ulkan va qo'rqinchli kuch edi" ²⁵. Mahmud G'aznaviyning Hisdiston safatlari asarda birma-bir keltirilgan. Bu safarlar hijriy 392, 396, 398, 402, 404, 406, 409, 414, 418, 421-yillarda amalga oshirilgani aytiladi va har bir safat ba'zisi qisqa, ba'zisi uzunroq yoritiladi.

Al-Bidoya asarida Qoraxoniylar davlatiga oid hijriy 423-yilda vafot etgan Yusuf Qodirxondan so'ng hijriy 456-yilga qadar hech bir ma'lumot berilmaydi. Ma'lumki, Qoraxoniylar sulolasining bosh hukmdori Yusuf Qodirxon (vaf. 423/1032) vafotidan so'ng, hokimiyat ikki o'g'li Sulaymon ibn Yusuf hamda Muhammad ibn Yusuf tomonidan boshqarildi. Bu orada Ibrohim ibn Nasr Saljuqiylarning yordami bilan avval Farg'onani, keyin Movarounnahrni Ali Tegin avlodlaridan tortib oladi. 434/1043-yildan boshlab esa Ibrohim ibn Nasr Movarounnahrni butunlay qo'lga kiritadi²⁶.

Ibrohim ibn Nasr Tabg'achxon hayotlik chog'ida (vaf. 462/1070) o'g'li Shams al-Mulk unvoni bilan tanilgan Nasr ibn Ibrohimga taxtni topshiradi. Faqat Ibrohim ibn Nasrning boshqa bir o'g'li Shuays bunga qarshi isyon qiladi. Taxt uchun kurashda Shams al-Mulk g'olib bo'ladi. Ibrohim ibn Nasr davridayoq Saljuqiylar bilan dushmanlik kayfiyati Shams al-Mulk davrida yanada rivojlandi. Saljuqiylar sultoni Alparslon hijriy 465-yil (1072-yil) kuzda Qoraxoniylarga qarshi ikki yuz ming qo'shin bilan Movarounnahrda katta yurish qiladi. Ammo safar boshida bir qal'aning asir tushgan qo'mondonining xanjar sanchishi ortidan vafot etadi. Natijada Saljuqiylarning ushbu yurishi natijasiz yakunlanadi²⁷. Shams al-Mulk Ibrohim ibn Nasr esa Termiz va Balxni egallaydi. Al-bidoya asarida Ibrohim ibn Nasr va uning davrida Qoraxoniylar va Saljuqiylar o'rtasidagi munosabat haqida ikki o'rinda ma'lumot uchraydi va Ibrohim ibn Nasr "Muhammad Tekin" nomi bilan zikr qilinadi. Asarda Alparslon Movarounnahr yurishidan ancha avval hijriy 456-yilda o'g'li Malikshohni Qoraxoni hukmdori qiziga uylantirgani aytiladi: "Shu yili (hij. 456-yil) Alparslon Movarounnahr hukmdori Buyukxonning qiziga o'g'li Malikshohni uylantirish uchun maktub yubordi. Nikoh amalga oshib, Malikshoh Buyukxonning qizi bilan turmush qurdi"²⁸.

Asarda sulton Alparslonning Movarounnahr yurishi va bu asnoda vafot etishi ham keltirilgan: "Bu

yil boshida Sulton Alparslon Movarounnahrda g'azotga ketayotganida bir manzilda Yusuf al-Xorazmiy ismli kishidan g'azablandi. Uni huzuriga keltirib, ayrim ishlari sababli koyidi. So'ng yerga to'rtta qoziq qoqilib, ularning orasiga mixlab qatl etilishini buyurdi. Shunda Yusuf: — "Ey nomard! Menga o'xshagan odamni shunday o'ldiradilarmi?" — dedi. Bu so'zlardan Alparslon yanada g'azablanib, uni oldinga olib kelishni buyurdi. So'ng yerdan kamon va o'qni olib, unga qarata o'q uzdi. Ammo o'q tegmadi. Yusuf esa darhol sultonga tomon yugurdi. Sulton taxtidan tushmoqchi bo'lganida oyog'i qoqilib yiqildi. Yusuf yoniga yashirib qo'ygan xanjarini chiqarib, sultonga sanchdi. Shu payt askarlar yetib kelib, Yusufni o'ldirdilar. Biroq sulton juda og'ir yaralangan edi. U shu yil Rabi'ul-avval oyining o'ninchi kuni, shanba kuni vafot etdi. Shu yili Samarqand voliysi Muhammad Tekin Termiz shahrini egalladi²⁹".

Shams al-Mulk Ibrohim ibn Nasrdan keyin uning ukasi Abu Shujo Xizr ibn Ibrohim taxtga o'tirdi va mamlaktni bir yil boshqardi. Uning hukmronlik davri haqida juda oz ma'lumot bor. Vafot etgan yili ham manbalarda zikr qilinmagan. Tarixchi V.V.Barthold Nizomiy Aruziy Samarqandiyning Xizr ibn Ibrohimni diyonatli va adolatli deb sifatlaganini naql qiladi³⁰. Al-bidoya asarida Xizr ibn Ibrohim hukmronligi haqida ma'lumot kelmasa-da, u bilan bir olim o'rtasida hodisa bayon qilingan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Samarqandda istiqomat qilgan, hadis ilmi bilan shug'ullangan va katta boylikka ega bo'lgan Muhammad ibn Muhammad ibn Zayd al-Husayniyning katta bog'i bo'lgan. Xizr ibn Ibrohim ushbu bog'dan foydalanishni so'ragan, biroq Muhammad ibn Muhammad bunga rozi bo'lmagan. Shundan so'ng hukmdorning unga nisbatan munosabati o'zgarib, Muhammad ibn Muhammad hibsga olinib, mol-mulki musodara qilingan va u zindonda vafot etgan. Ibn Kasir bu voqea orqali Xizr ibn Ibrohim davridagi hukmdor va ulamolar o'rtasidagi munosabatlarga oid ma'lumotni ham keltiradi³¹.

Xizr ibn Ibrohimning vafotidan keyin 1081-yilda o'g'li Ahmadxon ibn Hidr hokimiyat tepasiga keldi. Ahmad va uning otasi davrida Movarounnahr poytaxti Samarqand shahri edi. Ahmad ibn Hidr davriga kelib mamlakatta ichki ziddiyatlar yanada keskinlashadi. Ibn al-Asir "Al-Komil" asarida uni zulmkor, yomon xulq egasi sifatida ta'riflaydi³². Ahmad ibn Hidr hukmronligida ulamolar bilan murosasizlik, Saljuqiylarning aralashishi sabab bo'ldi. Ibn al-Asir keltirgan ma'lumotiga ko'ra, Samarqandning sobiq qozisi bo'lgan Abu Tohir ibn Ilek ash-Shofiy saljuqiylar sultoni Malikshohdan yordam so'raydi va Movarounnahrni bosib olishga undaydi. Saljuqiylar sultoni bunday ichki

²⁴ Peter B.Golden. Dunyo tarixinde Orta Asya. Tarj: Yahya Kemal Taştan. – Istanbul: Ötügen Neşriyat, 2015. – B. 118.

²⁵ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 110.

²⁶ Movarounnahrda islom madaniyati tarixi/ mualliflar jamoasi. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023. – B. 150.

²⁷ V.V.Barthold. Moğul istilasina kadam Türkistan. Tarj: Hakki Dursun Yildiz. – Istanbul: Kronik Kitap, 2021. – B. 329.

²⁸ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 203-204.

²⁹ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 226-228.

³⁰ V.V.Barthold. Moğul istilasina kadam Türkistan. Tarj: Hakki Dursun Yildiz. – Istanbul: Kronik Kitap, 2021. – B. 331.

³¹ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 269.

³² Ibn Asir. Al-komil fit-tarix. – Istanbul: Bahar yayinlari. J. X. – B. 154.

ziddiyatlardan foydalanib 481/1089-yilda Buxoroni va uzoq qamallardan keyin Samarqandni egallaydi. Al-bidoya asarida Malikshohning Movarounnahrni egalashi quyidagi keltiriladi: “Bu yili (hij. 481-yil) Sulton Malikshoh Samarqand shahrini zabt etdi³³. Bu yili (hij. 482-yil) Sulton Malikshoh uzoq davom etgan urushlar, shiddatli janglar va kuchli hujumlardan so'ng Movarounnahr hamda uning atrofidagi ko'plab shahar va qal'alarni o'z qo'li ostiga oldi”. Sulton Malikshoh Ahmadxonni taxttan ag'darib Isfaxonga jo'natadi. Malikshohning ushbu yurishlaridan so'ng sahrqiy va g'arbiy qoraxoniylar xoqonligi Saljuqiylarga qaram bo'lib qoladi. Lekin shunday bo'lsa-da Samarqandga sulton Malikshoh tomonidan tayinlangan noiblar taxtga ko'p o'tirmadi. Ularga qarshi Samarqanddagi Qoraxoniylarning harbiy qo'mondonlari bosh ko'tarib turishdi. Oxir-oqibat sulton Malikshoh Samarqandi Ahmad ibn Hidrga qaytaradi³⁴. Lekin Ahmad ibn Hidr boshqaruvi uzoqqa cho'zilmadi va 488/1095-yilda isyonchilar tomonidan o'ldirildi. Ibn Kasir Ahmadxonning o'ldirishiga uning ziddiqlikda ayblanishini sabab qilib keltiradi. Ibn al-Asir ham buning sababini “dindan qaytgani” bois deb ko'rsatadi. Bu asarda bu hodisa quyidagicha keladi: “Bu yili (hij. 488-yil) Samarqand voliysi Ahmad ibn Xoqon qatl etildi. Uning o'ldirilishiga sabab shuki, unga qarshi zindqlikda ayblovl bilan guvohlik berildi. Shundan so'ng u bo'g'ib o'ldirildi. Uning o'rniga amakisining o'g'li Mas'ud hokim etib tayinlandi³⁵”.

Al-bidoya van-nihoya asari Qoraxoniylar hukmdorlariga oid keying ma'lumot Muhammad ibn Sulaymon Arslonxon bilan bog'liq. 1097-yilda Movarounnahr Malikshohning katta o'g'li sulton Barkyaruq (498/1105) tomonidan egallandi va u tomonidan Ibrohim Tabg'ochxonning avlodlari Sulaymon ibn Dovud, keyinroq Mahmud teginlar xon etib tayinlanadi. Sharqiy Qoraxoniylar bu orada Movarounnahrni takror egallaydi. Termiz shahrini egallashga muvoffaq bo'lsalar-da, sulton Sanjar bilan bo'lgan shahar yaqinidagi jangga mag'lubiyatga uchrashadi³⁶. Sulton Sanjar Movarounnahrda Sulaymon ibn Dovudning o'g'li Muhammad ibn Sulaymonni hokim etib tayinlaydi. Arslonxon unvonini olgan Muhammad ibn Sulaymon Saljuqiylardan mustaqil ravishda siyosat yurgazishga harakat qilgan. Ayniqsa uning xalifaga elchi yuborishini ko'rish mumkin. Xalifa Mustarshid (1094/1118) Abu Sa'd ibn Yayho ibn Ali al-Hulvoniyni (vaf. 520/1126) Arslonxon huzuriga elchi qilib yuboradi. O'z navbatida Arslonxon Abu Ali al-Husayn al-Lomishiy (vaf. 522/1131) javob elchisi sifatida xalifa Mustarshid huzuriga yuboradi. Ibn Kasir Abu Ali al-Husayn vafoti haqida yozayotib, Arslonxon tomonidan elchi sifatida yuborilganini qayd etadi: “Hasan ibn Ali ibn Abul Qosim al-Lomishiy samarqandlik olim edi. U hadis rivoyat qilgan, fiqh ilmini o'rgangan va ilmiy munozaralarda o'zining kuchli dalillari bilan namuna

sifatida tilga olingan. U ezgu xulqli, taqvodor va salafi solihlar yo'lida bo'lgan inson edi. Sun'iylik va dabdabani yoqtirmas, doimo yaxshilikka buyurar edi. Movarounnahr hukmdori Xoqonning maktubini elchi sifatida Bag'doddagi xalifa saroyiga olib borgan. Unga: “Bu yil haj qilmaymizmi?” deyishganida, u: “Men hajni hukmdorlarning elchilik vazifasiga bo'ysundirmayman,” deb javob bergan. Shundan so'ng yurtiga qaytgan va shu yilning Ramazon oyida, 81 yoshida vafot etgan. Alloh unga rahmat qilsin³⁷”.

Muhammad ibn Sulaymon davrida biroz osoyishtalik davri bo'lgan. Arslonxon hukmronligining so'ngi yillarida og'ir dardga chalinadi va taxt vorisi etib o'g'li Nasrni tayinlaydi. Lekin mamlakatta isyon ko'tarilib 1130-yilda Nasr suiqasd natijasida o'ldiriladi. Nasr o'ldirilganidan so'ng g'alayonni bostirish uchun Arslonxon sulton Sanjardan yordam so'raydi. Shu paytning o'zida Arslonxonning ikkinchi o'g'li Ahmad Qodirxon Samarqandda o'zi tartib o'rnatadi, shu bilan sulton Sanjarning yordamiga ehtiyoj qolmaydi. Yo'lda kelayotgan sulton Sanjarga “orqaga qaytish” haqida murojaat yo'llansa-da, Ahmad Qodirxonning o'zboshimchaligidan g'azablangan sulton Sanjar yurishni davom ettiradi. Natijada Sanjar 1130-yilda Samarqandni egallaydi. Asarda ibn Kasir shahrni egallanishi aytib o'tgan: “Bu yili (hij. 524-yil) Sulton Sanjar Muhammad ibn Xoqon qo'l ostidagi Samarqand shahrini egalladi³⁸”.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Abul Fido Ismoil Ibn Kasirning Al-bidoya van-nihoya asarida Qoraxoniylar va G'aznaviylar davriga oid ma'lumotlar asosan siyosiy-harbiy voqealar, hukmdorlar o'rtasidagi munosabatlar va hududiy kurashlar doirasida yoritilgan. Ayniqsa, Mahmud G'aznaviyning Hindistonga yurishlari, uning shaxsiyati shuningdek, asarda Mahmud G'aznaviy bilan ayrim Qoraxoniylar hukmdorlari o'rtasidagi ittifoqchilik va do'stona munosabatlar ham qayd etilgan. Asar Ibn al-Asirning “Al-Komil fit-tarix” asari kabi siyosiy jihattan boy bo'lmasa-da, biografik jihattan ustun deyish mumkin. Manbalarda juda oz ma'lumot berilgan Xizr ibn Ibrohim bilan olim o'rtasidagi voqeani bunga misol qilish mumkin. Ibn Kasir asarda Mahmud G'aznaviy shaxsiyatini ham “Al-Komil”m asaridan ancha keng yoritgan. Umuman olganda Al-bidoya van-nihoya asari Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan tarixiy shaxslarni yanada yaxshiroq tanish uchun muhim manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abul Fido Ibn Kasir. Al-Bidoya van-Nihoya / Mehmet Keskin tarjimai. – Istanbul: Çağrı Yayınları, 1994. J. XIV.

³³ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 270.

³⁴ Movarounnahrda islom madaniyati tarixi/ mualliflar jamoasi.. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. – B. 152.

³⁵ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 292-293.

³⁶ V.V.Barthold. Mo'g'ul istilasina kadam Turkistan. Tarj: Hakki Dursun Yildiz. – Istanbul: Kronik Kitap, 2021. – B. 333.

³⁷ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 371-372.

³⁸ Ibn Kasir. Al-Bidoya . J. XII. – B. 374.

2. V.V.Barthold. Moğul istilasina kadar Türkistan. Tarj: Hakki Dursun Yildiz. – Istanbul: Kronik Kitap, 2021. – 604 b.
3. Movarounnahrda islom madaniyati tarixi/ mualliflar jamoasi.. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. – 524 b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – Toshkent: “Hilol Nashr”, 2021. J. II.
5. Peter B.Golden. Dunyo tarihinde Orta Asya. Tarj: Yahya Kemal Taştan. – Istanbul: Ötuken Nesriyat, 2015. – 246 b.
6. Jean-Paul Roux. Orta Asya. Tarih ve Uygarlık. Tarj: Lale Arslan. – Istanbul: Say yayıları, 2023. – 559 b.
7. Ibn Asir. Al-komil fit-tarix. – Istanbul: Bahar yayınları. J. XI.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. – Toshkent: “Hilol Nashr”, 2021. J. II.